

**OROLBO'YI MINTAQASIDA EKOLOGIK VAZIYATNI
BARQARORLASHTIRISH, OROL DENGIZI QURISHI NATIJASIDA
YUZAGA KELGAN EKOLOGIK MUOMMOLARNING
SALBIY TA'SIRINI YUMSHATISH**

Termiz davlat universiteti
Yuridik fakulteti 123-guruh talabasi
Samadova Shohida
Termiz Davlat Universiteti
Yuridik fakulteti „Davlat va Huquq asoslari“
kafedrasi o'qituvchisi
Avliyaqulov Adxam Alisherovich


Annotatsiya: Ushbu maqolada Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyatni barqarorlashtirish masalalari hamda Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta'sirini yumshatish yo'llari yoritilgan. Orol fojiasi tufayli mintaqada suv tanqisligi, tuproqning sho'rlanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, atmosfera ifloslanishi kabi dolzarb muammolar yuzaga kelgan. Mazkur maqolada ushbu ekologik inqirozning aholi salomatligi, iqtisodiyot va tabiiy muhitga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik, yashil zonalarini barpo etish, ijtimoiy va iqtisodiy loyihalar orqali mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Orol tarixi, orol fojiasi, ekologik muommolar, iqlim o'zgarishi, aholi o'rtasidagi kasalliklar, orol tiklash loyihalari, ekologik tiklash bo'yicha qonunchilik hujjatlari, „Kokorol“ loyihasi, BMT Taraqqiyot strategiyasi, Vazirlar Mahkamasi qarori, „Yashil qoplamalar“, USAID loyihasi, Tragdy of the common.

O'z davrida kattaligi bo'yicha 4o'rinni egallagan, boy tabiati bilan tanilgan va bugungi kunga kelib esa eng katta ekologik muommolardan biriga aylangan Orol dengizi aslida o'zi qanday ko'rinishga ega edi? Orol dengizi – O'rta osiyodagi eng katta dengiz hisoblangan. 1989-yilda havzasining maydoni 690 ming km², suvining hajmi 1000 km³, o'rtacha chuqurligi 16,5 m ni tashkil etgan. Orol dengizida suv sathi miqdori vaqti -vaqti bilan o'zgarib turgan. Sariqamish va O'zbo'y orqali Orol dengizi suvlari Kaspiy dengiziga quyilib turgan. Asosiy suv bilan esa Amudaryo va Sirdaryo ta'minlab turadi. 1960-yillargacha yiliga Amudaryo Orol dengiziga 38,6 km³, Sirdaryo esa 14,5 km³ suv olib borgan. Orol dengizida suv hajmi 1960-yillarda 68 ming km² tashkil qilgan.¹

¹ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Orol_dengizi

Orol dengizi shimolda Qozog‘iston va Qoraqalpog‘iston o‘rtasida joylashgan bo‘lib, bugungi kungacha 1500 dan ortiq orollarni o‘z ichiga olgan edi. Yillar davomida suv hajmi kamayib, ushbu ko‘rinishga kelib qolgan:



2

Orol dengizining “Orol sahro”siga aylanib qolishiga oid bir qator sabablar mavjud. Xususan, „Kun.uz“ saytining ma’lumotlariga qaraganda :³

infratuzilmalaridan noto‘g‘ri foydalanish: Sobiq Sovet tuzumi Orol dengizidagi suvdan iqtisodiy manfaat ko‘rish maqsadida ekologik muammolar kelib chiqishini inobatga olmagan holda foydalangan .1947-yildan boshlab Sirdaryoni Orolga quyilish joyida “Аралский порт”ini tashkil etilgan. 1960-yildan boshlab Sobiq Sovet Ittifoqi tomonidan irrigatsiya loyihasiga binoan , oroldagi suvlarni sug‘orish hamda cho‘l zonalariga tarqatish ishlari boshlandi. Kanallar, to‘g‘onlar va suv omborlari qurilishi avvallari Orol dengizini to‘ldirib turgan Amudaryo va Sirdaryodan katta miqdorda suv yo‘nalishlarini o‘zgartirdi.

Tabiiy iqlim o‘zgarishlari: Orol dengizining bugungi holatiga kelishiga inson faoliyati asosiy sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, lekin tabiiy iqlim o‘zgarishlari ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Mintaqa qurg‘oqchilik davrlarini boshdan kechirdi, bu daryolar oqimini yanada kamaytirdi.

Orol dengizida keskin suvning pastlashi hududda ko‘plab global muommolarni keltirib chiqardi. Xususan, aholi salomatligiga oid kasalliklar paydo


² <https://www.britannica.com/place/Aral-Sea>

³ <https://kun.uz/en/news/2024/08/01/aral-sea-tragedy-causes-impacts-and-possible-solutions>

bo'lishi, ishsizlik, iqtisodiy inqiroz, flora va fauna olamini barbod bo'lishi, iqlim o'zgarishi va atrof muhitning zararlanishi kabi holatlar ko'paydi. Aholi orasida astma, bronxit, o'pka saratoni, sil, kamqonlik kabi nafas yo'llari kasalliklarining keskin ko'payishiga olib keldi va hududda tug'ma nuqsonlar soni ortdi. 2002 yil yanvar oyida, Qoraqalpog'iston aholisining 80-90 foizida kamqonlik, Qozog'istonda esa 89 foiz aholi ovqat hazm qilish tizimi bilan bog'liq muammolarga, shuningdek, vazn va bo'yning qisqarishiga duchor bo'lgan. 2017-yilda dengiz tubi atrofidagi hududlarda o'lim darajasi 1000 tadan 60-100 tani tashkil etgan bo'lsa, poytaxt Toshkentning o'zida bu ko'rsatkich 1000 tadan 48 tani tashkil etgan. 1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'lim har ming bolaga nisbatan 1980-yildagi 46,5 nafardan 1986-yilda 72 nafarga yetdi. Hududda yashaydigan ayollarda kamqonlik, qorin tifi kasalligi 30 marta, yuqumli sariq kasalligi esa 7 martaga ko'paydi.

Orolning qurishi iqtisodiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Aholisining 80% ining asosiy qismi baliqchilik bilan shug'ullangan orol aholisi 1960-yillarda Rossiyaning asosiy eksport mahsulotining 1/6 qismi bilan ta'minlab turgan Orolbo'yida, yillik baliq ovlanishi 30-35 ming tonnani tashkil etgan.⁴ Amudaryo va Sirdaryo deltalaridagi unumdor yerlarida chorvachilik, parrandachilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda 100 mingdan ortiq aholi ish bilan band qilingan edi. Orolning keskin qurishi oqibatida baliqchilik inqirozga uchradi, bu soha vakillari esa ishsiz aholiga aylangan.

Flora va fauna olamida ham keskin muommolar yuzaga kela boshlagan. 1960-yilda Orol dengizida 38 turdagi baliq turlari mavjud bo'lib, 1980-yilda kuchli tuzlanish, suv sathining pastlashi oqibatida sazan, sudak, xo'randa va bekire turdagi baliq turlari yo'q bo'lib ketdi. 2000-yilga kelib esa kuchli kimyoviy dorilar va sho'rlanish natijasida barcha turdagi baliq turlari yo'q bo'lib ketgan.



Ushbu jadvalda 2017-yilgi ma'lumotlarga asosan, Orol dengizidagi suv sathi va sho'rlanish darajasi o'zgarganda tijorat va baliq ovlash tuzilishi keltirilgan.

⁴ <https://www.un.int/uzbekistan/news/>

Orol dengizining qurishi oqibatida jiddiy iqlim o'zgarishi kuzatildi. 2018-yilda O'zbekiston va Qozog'iston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Orol dengizida bug'lanishining kamayishi atmosfera namligining pasayishiga va natijada yog'ingarchilikning qisqarishiga sabab bo'lgan.⁵ Suv manbalarining ifloslanishi orqali 2019-yilda O'zbekiston Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlarga ko'ra, Amudaryo suvidagi tuz miqdori 1960-yillarga nisbatan 2-3 barobar ortgan. BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) ma'lumotlariga ko'ra, Orol dengizining tubida 5 million gektardan ortiq qumli hudud – "Orolqum" cho'li paydo bo'lgan. O'zbekiston Gidrometeorologiya xizmati esa Orolbo'yida yozgi harorat oldin 35-38°C atrofida bo'lgan bo'lsa, hozir 45-50°C gacha ko'tarilganligi haqida ma'lumot berishgan. Qishki harorat esa oldingi davrga nisbatan 10-12°C sovuqlashgan. Har yili Orol dengizining qurigan tubidan 75 million tonnadan ortiq chang va tuz atmosferaga ko'tariladi.⁶

Orolni tiklash uni oldingi holatiga qaytarish bugungi kunning eng global muommolaridan biri hisoblanadi. Aynan Orolni hozirgi holatini saqlab qolish bo'yicha O'zbekiston qonunchiligida bir nechta hujjatlar ishlab chiqildi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining tomonidan 2022-yil 18-yanvardagi 31-son „Orol dengizining suvi qurigan tubida va Orolbo'yi hududlarida "yashil qoplamalar" — himoya o'rmonzorlarini barpo etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaror qabul qilindi. Qarorda 2022–2026-yillar davomida ushbu hududlarda o'rmonzorlar yaratish hajmlari va cho'l o'simliklari urug'larini tayyorlash rejalari belgilangan. 2022-yil 25-yanvar 41-son, „Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida, qarori asosida Orolbo'yi mintaqasini barqaror rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalar ro'yxati keltirildi. Loyiha asosida Ekologik barqarorlik hamda ekologik innovatsiyalar va texnologiyalarni jalb qilish, Orolbo'yi mintaqasini iqtisodiy rivojlantirish choralari, orolbo'yi mintaqasini ijtimoiy rivojlantirish choralari ishlab chiqildi. Qaror asosida 2022-2026yilga mo'ljallangan umumiy miqdori 210270,0 bo'lgan mablag' ajratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmon bilan qabul qilingan, „O'zbekiston 2030-strategiyasi" ning 69-ustuvor vazifasi asosida: orolbo'yi mintaqasidagi o'rmonzorlarni 2,3mln gektarga yetkazish, 600ming gektar yashil maydonlarni barpo etish, „Yashil iqlim" va global ekologik jamg'armalarning biologik xilma-xillik, iqlim o'zgarishi va tuproq yemirilishi asosida 300million dollar qiymatidagi loyihalar keltirildi. Orolning qurigan 363ming gektar hududiga saksovul ekildi. Bu ishga 1ming 560 kishi saksovul urug'larini ekishga faol qatnashdi. Bundan tashqari Orol hududida 40ta artezian qurildi bu esa chorvachilikni tiklashga oz bo'lsada yordam berdi.

⁵ <https://daryo.uz/k/2018/01/09/orol-dengizining-qurishidan-atmosferaga-kotarilayotgan-chang-tozonlarni-toxtatish-yoli-topildi>

⁶ <https://kun.uz/66041427>

Orol muommosi faqat Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining muommosi bo'libgina qolmasdan, butunjahon muommosidir. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda oroldagi tuzlarning uchishi natijasida Antarktida hududida ham topilgan. Bu esa muzlarning erishiga olib kelishi aytilgan. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan „Orol dengizi Trast fondi“ (Aral Sea Trust Fund) tashkil etilib, loyiha asosida 293 mingdan ortiq insonlar toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi, kasalliklar miqdori pastladi, ishsizlik oldi olingan. 2021-yilda BMT Bosh assambleyasida O'zbekiston tashabbusi bilan O'rolbo'yi mintaqasini „Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi“ deb e'lon qilindi. Bu rezolutsiya mintaqada ekologik muommalarni hal etish uchun ilmiy tadqiqotlar va texnologik yechimlarni rivojlantirishga qaratildi.⁷

1994-yil 26-mart kuni Qozog'istonning Kzyl-Orda shahrida „Orolni qutqarish xalqaro Jamg'armasi“ Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston davlatlarining o'zaro hamkorlik o'rnatdi. Hamkorlik ishlari natija bermagandan so'ng parchalanib ketdi. Keyinchalik esa Qozog'iston tomonidan Orolni asrash va shimoliy qismini qayta tiklash bo'yicha „Asr loyihasi“ amalga oshirildi. 2001-yilda Qozog'iston hukumati va Jahon banki o'rtasida kelishuv imzolandi. 2005-yilda Qozog'iston hukumati Jahon banki bilan hamkorlikda 13 kilometrlik, balandligi 6 metr bo'lgan „Ko'korol“ to'g'oni qurib bitkazildi. Ushbu loyiha uchun mablag'ni Jahon banki ajratdi. Manbalarda aniq summa mavjud emas, taxminan 85 million Aqsh dollari atrofida bo'lganligi aytilgan. „Asr loyihasi“ asosida dengizdagi suv hajmi 47% oshib, 22 milliard kub metrdan yuqoriladi. Suvning sho'rlanishi qariyb 4 barobarga kamaydi va shimoliy qismda yillik baliq ovlash 8 ming tonnaga yetdi. Ushbu to'g'on Shimoliy Orol dengizi janubiy qismidan ajratib suv sathini barqarorlashtirdi.⁸ Eng asosiysi esa shimoliy qism to'liq saqlab qola olindi.

Orol muommosini „Tragdy of the common“ (namunasi sifatida ko'rishimiz mumkin. Sababi, ushbu muommoning asosi ham shudir. „Tragdy of the common“ tushunchasi inson o'z ehtiyojlaridan ortiq narsani olish evaziga o'sh resursni tugatish tushiniladi. Bu tushuncha 1968-yil Garrett Hardin tomonidan ilgari surilgan. Orol muommosi Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston davlatlarining suv manbasidan noto'g'ri foydalanishi natijasida paydo bo'ldi. Ya'ni har bir davlat Orol dan o'z ehtiyojiga ko'ra foydalandi va qaytarib bo'lmas suv resursini tugashiga sabab bo'ldi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayangan holda Orol dengizini tiklash va asrab qolish bo'yicha o'z takliflarimizni beramiz. Orolbo'yini saqlab qolish faqatgina hamkorlik asosida amalga oshirilishi mumkin. Sababi bu butunjahon mamlakatlari muommosidir. Agarda davlatlar ittifoq asosida birlashmasdan e'tibor bermasa jiddiy oqibatlar kelib chiqadi. Davlatlar o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatib, o'zaro nazorat organlarini

⁷ Mptf.undp.org

⁸ <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/orol-dengizining-suvi-kopaydi-qozogiston-ek>

tuzilsa natijaga erishish mumkin. Sababi amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'pchiligini hozirgi ahvoli qanday ekanligi e'tibordan chetda qolmoqda. Ya'ni mablag' ajratildi loyiha amalga oshirildi, ammo hozir qanchalik darajada loyiha maqsadga erishdi shunisi barchaga sir bo'lib qolmoqda. Keyingisi, Amudaryo va Sirdaryo suvlari yo'naltirilgan xo'jaliklarni qattiq nazoratga olish lozim. Sababi suvni e'tiborsizlik bilan yo'naltirish uni befoyda yerlarga ketishiga sabab bo'ladi. Asosiy suv yo'nalishlarini nazorat va tartibga solsak, o'zaro hamkorlik bilan orol asrab qolinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Orol_dengizi
2. <https://www.britannica.com/place/Aral-Sea>
3. <https://kun.uz/en/news/2024/08/01/aral-sea-tragedy-causes-impacts-and-possible-solutions>
4. <https://daryo.uz/k/2018/01/09/orol-dengizining-qurishidan-atmosferaga-kotarilayotgan-chang-tozonlarni-toxtatish-yoli-topildi>
5. <https://kun.uz/66041427>
6. <https://www.un.int/uzbekistan/news/>
7. [Mptf.undp.org](https://mptf.undp.org)
8. <https://youtu.be/fIMwKCrDZc8?si=huxysAba6jyJxjWk>
9. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/02/22/orol-saksovul/>
10. <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/orol-dengizining-suvi-kopaydi-qozogiston-ek>